UO‘K: 821.512.133

30-YILLAR O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” BADIIY KONSEPTI

A.A.Xudayberdiyev

Maqolada 30-yillar o‘zbek she’riyatidagi “vatan” badiiy konsepti o‘rganilgan. “Vatan” tushunchasining Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Uyg‘un va Hamid Olimjon she’rlaridagi badiiy talqinlari tahlil qilingan. “Vatan” konsepti tarkibidagi “katta vatan” va “kichik vatan” tushunchalarining badiiy ifodalari ko‘rib chiqilgan. “Vatan” konsepti talqiniga davr ijtimoiy-siyosiy kontekstining ta’siri masalasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *vatan tushunchasi, “katta vatan”, “kichik vatan”, sovet davri she’riyati, milliy o‘zlik, badiiy talqin, vatanparvarlik*.

В статье рассматривается художественная концепция Родины в узбекской поэзии 1930-х годов. Анализируются художественные интерпретации концепции родины в стихотворениях Чолпона, Гафура Гулама, Ойбека, Миртемира, Уйгуна и Хамида Олимджона. Рассмотрены художественные проявления концептов «большая Родина» и «малая Родина» в рамках концепта Родина. Раскрывается вопрос о влиянии общественно-политического контекста исторического периода на трактовку понятия Родина.

Ключевые слова: *понятие родины, «большая родина», «малая родина», советская поэзия, национальная идентичность, художественная интерпретация, патриотизм.*

Kirish

Inqilobdan keyingi O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy sharoit millatning o‘zi va uning ma’naviy merosi haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantirish jarayonini boshlab berdi. Bu davrda jadidlar harakati va uning yetakchilari milliy o‘zlikni anglash va o‘zbek millatining kelajagi haqidagi qarashlarni tarqatishga intildilar. Jadidlar ko‘p jihatdan chig‘atoychilik g‘oyalariga tayanishdi, chunki bu g‘oyalar turkiy tilli xalqlarning (xususan, o‘zbeklarning) yagona tarixiy merosi sifatida ko‘rilib, milliy ma’naviyatning o‘zagi sifatida qabul qilingan edi.

Biroq sovet hukumatining ma’muriy-hududiy chegaralash siyosati bu jarayonni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bu o‘zgarishlar sovet mafkurasi bilan to‘qnash kelgan jadidchilik g‘oyalarini ham qamrab oldi. Milliy-etnik tushunchalar yangicha ma’no kasb eta boshladi va shu bilan birga “vatan” tushunchasi ham qaytadan shakllandi. Ayniqsa, 30-yillar o‘zbek she’riyatida “vatan” mavzusi yangi ma’noda va turli siyosiy yo‘nalishlar asosida talqin qilindi. Millat uchun vatan faqatgina geografik hudud bo‘lib qolmasdan, balki faxr va g‘urur obyekti o‘laroq ma’naviy makon sifatida ham qaraldi.

20-yillar oxiriga kelib sovet mafkurasi milliy ongni va vatanparvarlik g‘oyalarini o‘ziga moslab tartibga sola boshlagach, jadidlar ta’sirida paydo bo‘lgan “vatan” konsepti sovet tuzumi tomonidan o‘zgartirilib, yangi ma’naviy yo‘nalish asosida qayta ishlandi. 30-yillar she’riyatida vatan tushunchasi sinfiylik va kommunistik dunyoqarash bilan bog‘liq holda yangi mazmun bilan to‘ldirildi.

Material va metodlar

30-yillar o‘zbek she’riyatidagi davrga mos yangi tushunchalar tizimi, xususan, eng faol badiiy konseptlardan “vatan” va “millat” konseptlari genezisi va takomili masalasining tadqiqi uchun Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Uyg‘un va Hamid Olimjon she’rlari tahlilga tortildi.

Muammoni o‘rganishda madaniy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil usullari qo‘llanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Inqilobdan keyingi va 20-yillarning ijtimoiy hayoti keskin va tez sur’atdagi o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Jadidlar asosan “chig‘atoychilik” g‘oyalari targ‘ibotiga e’tibor qaratdilar. Bunda asosiy vosita “Chig‘atoy gurungi” bo‘ldi. O‘rta Osiyo xalqlari inqilobdan keyingi ijtimoiy-madaniy sharoit tufayli o‘zlarining milliy-etnik xususiyatlarini farqlab anglay boshlagan edilar. Sovet hukumatining ma’muriy-hududiy chegaralash

siyosati O‘rta Osiyo xalqlarining yashash tarzi va etnik xususiyatlari kabi ijtimoiy-madaniy farqlarni shakllanayotgan *milliy ong asosida* hududiylashtirdi. Bu jarayon millat sifatida o‘zini anglab borayotgan tasavvurdagi “o‘zbek” millati uchun tasavvurdagi hududni taqazo etdi. Ya’ni shu tariqa “millat” uchun “vatan” yaraldiki, bu jadidlar asr boshida ong faktiga aylantirishni istagan niyatning ro‘yobi bo‘ldi. Xullas, milliy chegaralanish jarayoni ongda yetilgan ehtiyojning natijasi edi.

Mahalliy milliy g‘oyaning g‘alabasi o‘laroq “O‘zbekiston”ning paydo bo‘lishi asosida yotgan chig‘atoychilik qarashlari 20-yillar oxiriga kelib sovet mafkurasi hujumiga uchradi.

Sovet mafkurasi jamiyatda keng quloch yoyib borishi barobarida jadidlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdan siqib chiqarila boshlandi. Ularning millatsevarlik va vatanparvarlik g‘oyalari ta’qib ostiga olindi [1. B. 2–4; 2. B. 2–3; 3. B. 3; 4. B. 2; 5. B. 3–4; 10. B. 5; 11. B. 3; 14. B. 3; 17. B. 2–3; 18. B. 49–50; 19. B. 140–148; 20. B. 2–3]. Ko‘plarining quvvati kesib tashlandi, hibsda ushlab turildi, qamaldi, surgun qilindi. 1929-yildan qatl mashinasi ishga tushdi. “Qosimovchilik”, “Munavvar qori to‘dasi” ishi kommunistik diktatura to‘la kuchga kirganini anglatardi [13. B. 51]. Yangi hokimiyat “sinfiylik”, “proletariat”, “kommunistik dunyoqarash” kabi yondashuv asosida qat’iy tartibda mafkura targ‘ibotini olib bordi. Natijada sovet mafkurasi asosida shakllangan yangi avlod, yangi adabiyot va yangi dunyoqarash yetisha boshladi.

20-yillar boshidan internatsionalizm g‘oyasi ilgari surilib, “millat” sinfiylik doirasida anglanishi, hududiy “vatan” esa ko‘p millatli kishilik jamoasi – xalqning “umumiy uyi”, “yagona vatani” sifatida e’tirof etilishi asnosida “millat” haqidagi hamda “vatan”ni anglashdagi *milliy hudud* bilan bog‘liq qarashlar ham o‘zgarayotgani ko‘rinadi. Afsuski, “internatsionalizm” tushunchasining sinfiylik, siyosat va hukmron mafkura doirasida talqin etilgani, undagi umuminsoniy mohiyatning soxtalashishiga olib kelgani 30-yillar ijtimoiy hayotida yaqqol kuzatiladi.

Bu davr o‘zbek she’riyatida lirik qahramon tilidan yangi yondashuv asosidagi “yangi vatan” tasvirlanadi. Cho‘lponning “Yangi men” she’ri misolida buni kuzatishimiz mumkin:

Mening yangi vatanimda
Na Majnun bor, na-da zanjir!
Munda har bir ishlaganning
Baxti quchog‘ida – kelur! [6. B. 8]

Shoir she’r nomini “Yangi men” deb nomlashidayoq ijtimoiy hayotdagi tub o‘zgarishlar hamda uning inson ijtimoiy psixologiyasiga, tafakkuriga ta’sir etganining guvohi bo‘lamiz. Bu o‘rinda shoirning “yangi men”i (lirik qahramoni) qayg‘ularning yo‘qligidan baxtiyor va endi u “o‘lik ruhli kechalardan” aslo sir kutmaydi. Shoirning “yangi vatani”da xalq quvnab-quvnab mo‘jizalar yaratadi, chunki bunda mehnat ozod bo‘lgan, shu sabab har kun “kuylar bilan tong otadi”, bunda “*ishlaganning baxti quchog‘ida*”, ya’ni “ishlagan – tishlaydi”. Ko‘rib turganimizdek, Cho‘lpon “sotsialistik vatan” madhiga qalam surmoqda. “Bizning vatan” she’rida [6. B. 14] ham mana shu ruh ustuvor, shoir quvonch bilan shu vatanda yashayotganidan faxrlanadi:

Yer yuzinda o‘zga bir olam erur bizning vatan,
Boshqa har bir o‘lkadan keng, har diyordan kattakon.

Dunyoda har bir yurtdan keng va kattakon, deya tasvirlanayotgan, shoir “yangi vatan” deya faxr tuyayotgan vatan “SSSR” ekanligi anglashiladi. Xuddi shu kabi ta’rifni Hamid Olimjonning “Vatan” she’rida [9. B. 215] *“Dunyoda menikiday / Katta va zo‘r Vatan yo‘q”* misralaridagi o‘xshashlikda ham ko‘ramizki, bu o‘rinda ham “Vatan” deganda butun “Sovet ittifoqi” – yangi ma’muriy-hududiy birlik nazarda tutiladi. Ya’ni jadid she’riyatida Rusiya imperiyasi umumiy vatan o‘laroq talqin qilingan bo‘lsa, endi uning o‘rnini “Sovet Ittifoqi” egalladi. Shu bilan birga, Rossiyani har ne ulug‘ligini e’tirof etgan holda ham ittifoq tarkibidagi bir o‘lka sifatida tushunish ham qaror topdi (H.Olimjon, “Rossiya” she’ri).

30-yillarda, ayniqsa, xalq xo‘jaligida erishilgan ulkan yutuqlar eyforiyasi ta’sirida vatani SSSR ekanligidan, shu buyuk yaratuvchilik ishlariga daxldorlikdan faxrlanish tuyg‘usi ustuvorlik qildi. Jumladan, Hamid Olimjonning “Ont” she’ri [8. B. 3] ham shunday faxrlanish aks etgan, 1-may bayrami munosabati bilan uyushtirilgan tantanada yangragan ont shaklidagi she’rdir. Million-million qizil bayroqlar hilpiragan, qahramonlar va nishondorlar joy olgan paradda fazodan shunday mag‘rur sado keladi:

– Menkim, SSSR
Mehnatkash xalqining o‘g‘liman;
Shimoldan janubga,
Sharqdan g‘arbgacha
Cho‘zilgandir mening Vatanim.
Eng baland uchida Pomir tog‘ining
Tikilgandir zo‘r bayrog‘imiz.

Fazoda yangragan mag‘rur sado – butun mehnatkashlar ovozi. Lirik qahramon tilidan aytilgan bu so‘zlar orqali Vatan va unda tantana qilinayotgan bayram shukuhi tasvirlangan. Bu o‘rinda shimoldan

janubga, sharqdan g‘arbga cho‘zilgan Vatan – SSSRdir. She’r kontekstida “Vatan” va “SSSR” so‘zlarining kontekstual sinonim o‘laroq qo‘llanilgani ham buni tasdiqlaydi. Lirik qahramon o‘zini Sovet mehnatkashlarining ajralmas bir qismi sifatida his qiladi, SSSR bayrog‘ining baland tog‘ cho‘qqilarida hilpirashi, mamlakat sarhadlarining kengligi bilan iftixor qiladi. She’rda “katta Vatan” – Sovet ittifoqi butun insoniyatning rivoji yo‘lida mehnat qilayotgan buyuk davlat sifatida tasvirlanadi. Pomirning eng baland cho‘qqisiga yurt bayrog‘i tikilgani, Vatan sarhadi shimoldagi inson izi tushmagan muz sahrolaridan janubdagi Qoraqum jaziramalariga qadar cho‘zilgani, po‘lat qushlarning yurt osmonini to‘ldirib uchishi, fazolarda ham Vatan posbonlarining bo‘lishi, ularning yengilmas va tengsizligi, dushman qadam bossa bunda omon topmasligi – hammasi lirik qahramon uchun faxrlanish obyekti.

Mirtemir ijodida ham “vatan” 30-yillar ijtimoiy-siyosiy muhitida yangicha talqin qilindi. Bu davrda vatanparvarlik sotsialistik g‘oyalar bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, mamlakatning taraqqiyot va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. “Quyosh haqida” she’rida [12. B. 118] tasvirlangan texnologik yutuqlar va ular orqali vatanni yangilash g‘oyasi talqin qilinayotgan “vatan” konsepti o‘sha davr zamonaviy tamoyillariga mos kelganini ko‘rsatadi. Shoirning ijodi orqali vatanning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi roli ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, “vatan” tushunchasi faqat geografik yoki milliy hududiy birlik sifatida emas, balki insonning hissiy tuyg‘ulari bilan yo‘g‘rilgan, mehnatsevarlikka bo‘lgan sodiqligi ramzi sifatida talqin qilinadi.

Mirtemirning “Quyosh haqida” (1934) she’rida nur, taraqqiyot, quvvat timsoli bo‘lgan quyosh metaforasi orqali Vatan tarannum etiladi. “Vatan”ning yorqin va qudratli tasviri sanoat rivoji, texnika taraqqiyoti, yorqin kelajak uchun jamoaviy kurash mavzulari bilan uzviy bog‘langan. Vatan dunyoga nur sochayotgan quyoshga qiyoslanadi:

Kurrada
Quyoshday yarqiragan vatanim!
Senga bo‘lsin, ulug‘ ona, har satrim, she’rim.
Senga bo‘lsin butun ishqim, yuragim, mehrim:
Senga bo‘lsin jaranglagan qo‘shiqlarim manim!

Quyosh hayot baxsh etuvchi kuch bo‘lib, taraqqiyotni ta’minlovchi energiyani ifodalaydi, shoir bu obraz orqali yosh sovet davlatining nekbinligi va dinamikligini ifoda etishga urinadi.

She’rda vatanning texnologik rivojlanishi e’tirof etiladi. Taraqqiyot bilan bog‘liq ramzlar “vatan”ning jadal progressiv o‘zgarishlar maskani sifatidagi tasvirini yanada kuchaytirgan. Shoir o‘zining “vatan” bilan aloqasini yaxshiroq kelajak qurish yo‘lidagi jamoaviy intilishning bir qismi sifatida belgilaydi. Bu 30-yillarda ulug‘langan sotsializm va jamoaviy mehnat ideallarini aks ettiradi.

Mirtemirning “Quyosh haqida” she’rida “vatan” ko‘proq quyosh va yorug‘lik ramzlari orqali talqin qilinsa-da, shuningdek, she’rda vatan ona sifatida ham tasvirlanadi. Shoir vatanini ulug‘ ona kabi ko‘radi va unga nisbatan chuqur mehr-muhabbat, sadoqat bilan munosabatda bo‘ladi. “Ulug‘ ona” ifodasi vatanning ona kabi buyukligini, muqaddasligini aks ettiradi. Shoir vatanni ona deb bilgani holda, unga xizmat qilishga tayyor ekanini ham ko‘rsatadi. “*Har dushmanning hiylasin-makrin yondirib*” kabi satrlar ona-vatan uchun jang qilishga tayyorlikni, uni himoya qilishga bo‘lgan fidoyilikni bildiradi. Bu ona vatanning nafaqat mehrga loyiq ekanini, balki uning himoyasi uchun kurashning ham muqaddas ekanligini anglatadi.

She’rda vatan insonlar uchun eng ulug‘ manzil, ilhom manbai va kelajakda rivojlanish uchun mustahkam zamin sifatida tasvirlangan. Vatan doimo umid, imkoniyatlar va muvaffaqiyatlarga yetaklaydigan joy sifatida talqin etilgan. Shuningdek, vatan faqat tarixiy meros yoki qahramonlik ramzi sifatida ko‘rilmay, u yorqin va muvaffaqiyatli kelajakning kafolati deb ham e’tirof etiladi. Bu yondashuvda vatan yangi avlodlarning orzu-istaklarini amalga oshirish va ularga ijobiy kelajak taqdim etuvchi ona sifatida ulug‘lanadi.

Mirtemirning “Yashil yaproqlar” [12. B. 143], “Uxla, qo‘zim!” [12. B. 153], “Bir varaq” [12. B. 179] she’rlari qatori “Qo‘shiqlar” she’rida [12. B. 194] bu, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi:

Bu dam ulug‘vor, soz dam,
Naqadar aziz, ko‘rkam.
Mardona kolonnalar
Kuylashur: “Vatan onam!”

20-yillardan boshlab olib borilgan sovet mafkurasi tashviqoti 30-yillarga kelib ommada yangicha dunyoqarashni shakllantirib ulgurdi. Bunga xalq xo‘jaligidagi yutuqlar bilan bir qatorda ulkan qurilishlar, maishiy turmushdagi ijobiy o‘zgarishlar ham o‘z hissasini qo‘shdi, albatta. Hatto Cho‘lpondek milliy istiqlol kuychisining Sovet ittifoqini Vatan o‘laroq madh etib, undan faxr tuyishi, g‘ururlanishi kichkina narsa emas. Sovet ittifoqining qurilishi, xalq xo‘jaligi yutuqlari va sotsializm mafkurasining xalqqa yetkazilishi milliy sho‘rolar adabiyotida asosiy mavzulardan biriga aylangan edi. Bu jarayonda shoirlar uchun “katta Vatan” va “kichik Vatan” tushunchalarining farqlanishi, lekin ularning bir-biriga bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xullas, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, mafkura ta'siri va milliy xotiradagi mustamlaka iztiroblari 20–30-yillar o'zbek she'riyatida "vatan" va "millat" mavzularining o'ziga xos tarzda anglanishiga olib keldi. Natijada, masalan, ijtimoiy va badiiy tafakkurda "katta Vatan" va "kichik Vatan" tushunchlari shakllandi. Aytish kerakki, "kichik Vatan" tushunchasi ma'lum ma'noda yuqoridagi kabi "katta Vatan" madhi bilan yo'g'rilgan she'rlarga aks ta'sir o'laroq maydonga chiqdi.

Sovet davri mafkurasi va madaniy qayta qurilish jarayonida "vatan" tushunchasi yangi siyosiy va ijtimoiy ma'nolar bilan boyitildiki, "kichik vatan" misolida ham bu 30-yillar she'riyatida o'z ifodasini topgan. G'afur G'ulomning "Obro' uchun" (1932) she'rida [7. B. 112–113] "vatan" tushunchasi keng badiiy mazmun kasb etadi. Shoir ijodida "vatan" tushunchasi xalqning mehnat faoliyati, siyosiy ong va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. "Obro' uchun" she'rida "vatan" faqat geografik makon emas, balki insonlarning mehnati orqali yuksalayotgan, taraqqiyotga erishayotgan zamonaviy jamiyatni ifodalaydi. She'rda O'zbekiston – "kichik vatan"ning paxtachilik sohasidagi muammolariga e'tibor qaratiladi va bu kontekstda "vatan"ni rivojlantirish, uni yangilash zarurati urg'ulanadi. Vatan, shoir talqinicha, xalqning faoliyati, mehnati va ijtimoiy mas'uliyati bilan bog'langan.

O'zbekiston paxtakorlik istiqlolin
Uhdaga olgan o'lka,
Qoldi orqada!
Nega?

deya shoir o'z vatani O'zbekistonni rivojlantirish uchun mehnatni eng muhim vosita sifatida ko'radi va xalqni, ayniqsa, paxtachilik sohasida yanada g'ayratli bo'lishga undaydi.

O'zbekiston!
Ishchi-dehqon!
Angla, bilki,
Bugungina plan bo'lgan
Oltmish uch.
Ko'prak g'ayrat,
Ko'prak obro',
Ko'prak kuch!
Cho'kishga qarshi yurish,
Mushtumzo'rni majbur qilish
Paytlarning shiori,
Hamma birdan bos ilgari,
ilgari!

Vatan haqidagi tasavvur milliy darajada emas, balki Sovet ittifoqining umumiy taraqqiyotiga mos keladigan xalqaro darajada shakllangan. "Vatan"ni rivojlantirish uchun g'ayrat va mehnat zarurligi urg'ulangan. She'r xalqni faol mehnat qilishga, mushtumzo'rlikka qarshi kurashga va jamiyatni oldinga intilishga da'vat qiladi. Shu bilan birga, "vatan" tushunchasi faqat hissiy tushuncha (g'ururlanish obyekti) bo'lmay, balki xalqning harakat va mehnati orqali hayotga tatbiq etilishi kerak bo'lgan *ideal* sifatida ifodalanadi.

Vatan mavzusining xuddi shunga o'xshash ruh va mazmundagi talqinlarini Cho'lpon tomonidan O'zbekistonning 10 yilligiga bag'ishlab yozilgan "Diyorim" she'rida [6. B. 43–44] ham kuzatamiz. Mazkur she'rda milliy istiqlol va milliy xotira masalalariga alohida e'tibor qaratarkan, shoir O'zbekiston – "kichik vatan"ni Sovet ittifoqi tarkibida o'z milliy qadr-qimmatini qayta tiklagan, kechmishni yangidan anglagan va mustamlaka iztiroblaridan ozod bo'lgan diyor sifatida talqin qiladi:

Titilib o'qilmas bo'lganda tarixing,
Hasrat-la alamga to'lganda tarixing,
Xazonning bargiday so'lganda tarixing –
Ko'zimning nurini ayamay o'qidim.

She'rda o'tgan asrlar davomida xalqning iztiroblari, "xazon" holatiga kelgan milliy tarix, adolatdan uzoq, qonga to'la kechmish tasvirlanadi. Biroq Cho'lpon she'rida Sovet inqilobi bu murakkab tarixni o'zgartirganini, milliy uyg'onish jarayonini boshlaganini ta'kidlaydi:

Be'mani tarixni yondirdi inqilob,
Sen qo'ygan talabni qondirdi inqilob,
Qarg'algan kechmishdan tondirdi inqilob –
Kelajak mehrini ko'ngilga jo aylab!

Inqilob millat uchun yangi istiqbollar yaratdi, xalq o'z tarixini qayta shakllantirdi va sovet davlatining bir qismi sifatida yangi milliy o'zlikka ega bo'ldi. Cho'lpon she'rida "diyorim" tushunchasi sovetcha milliy istiqlolni anglashning asosiy ramziga aylangan. Shu bilan birga, inqilob orqali "katta vatan" bilan birgalikda milliy vatan ("kichik vatan") ham o'z qadriga yetdi, yangi tarix yaratildi, degan sotsialistik ruhga monand qarash ham yotadi:

Diyorim, kattakon ro'zg'orda bir tansan,
Qanday joy, nima ish – xo'p yaxshi bilgansan,
Dunyoga yangidan tug'ilib kelgansan;
O'n yilda boshqatdan yasandi tarixing!

Cho'lpon tilidan yangragan "Diyorim" "katta ro'zg'or" – SSSR (katta vatan) tarkibida yangi siyosiy tuzum ostida shakllangan va shu muhitda davlat

sifatida qayta tiklangan “bir tan” – O‘zbekiston (kichik vatan)dir. Bu o‘rinda “yangidan tug‘ilish” – eski tuzumdan ozod bo‘lib, yangi hayotga, yangi ijtimoiy va siyosiy qiyofaga ega bo‘lish demak. O‘zbekistonning yangi tarixiy yo‘li sovet hokimiyati orqali belgilangan bo‘lsa-da, Cho‘lpon buni vatanining qayta tug‘ilishi sifatida ko‘radi. Bu tasvir o‘sha davrda paydo bo‘lgan umid va o‘zgarishlarga ishora qilib, xalqning yangi hayotga kirib borishini ham aks ettiradi.

Shuningdek, “boshqatdan yasandi tarixing” misrasi orqali ham tarixning sovet davrida yangi talqin qilinishi va vatan tarixiga yangi nazar tashlanishi bilan izohlanadi. She’rdagi ramziy “yangidan tug‘ilish” jarayoni sovet davridagi katta o‘zgarishlar va bunyodkorlik islohotlariga ham qaratilgan.

Ana shu ruhda 1934-yilda yozilgan Oybekning “O‘zbekiston” she’ri [15. B. 309] ham sovet davrining badiiy-estetik ideallarini aks ettiruvchi asarlardan biridir. Ushbu she’rda yangi sovet jamiyatining ijtimoiy o‘zgarishlari, erkin mehnat va baxt to‘lqinlari, tarixiy rivojlanishning istiqbollari shoir tomonidan maqtov va ilhom bilan chizilgan.

She’rda vatan (kichik vatan) yangi mehnat jamiyatining muhim negizi sifatida tasvirlanadi. Shoir Sovet Ittifoqi tomonidan yaratilgan yangi jamiyatni erkinlik va baxtning manbai sifatida ko‘rsatadi:

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor.
Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa, quyosh sog‘inar…
Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvullaydi.

Bu tasvirlar orqali O‘zbekiston tabiatining go‘zalligi va yangi jamiyatdagi farovon hayot ko‘rsatiladi. Shoirning nazarida, O‘zbekiston xalqi kuchli iroda bilan yangi tarix yaratmoqda. Shoir o‘tmishni keskin rad etadi, o‘zi guvohi bo‘lib turgan jamiyatdagi afzalliklarga urg‘u beradi. Bu yo‘sin tasvirlar sovet mafkurasining asosiy g‘oyasi – yangicha hayot va kelajakka ishonchni aks ettiradiki, “o‘lka” – vatan shu yo‘sin tasvirlanadi.

She’rda Oybek milliy vatan konsepsiyasini yangicha ideallar bilan uyg‘unlashtirdi. U sovet O‘zbekistonining taraqqiyoti bilan faxrlanishni *vatanparvarlik* sifatida ko‘radi va ko‘rsatadiki, shoirning vatan haqidagi bu kabi yondashuvida sovet mafkurasi ta’siri aks etadi.

Yaratildi bir shoh asar, go‘zal bir doston,
G‘adir-budur mehnat qo‘li bitgandir buni,
Kelajakning bahoridan olingan kuyi,
Xayollarga sig‘maydi hech buning mazmuni,
Qofiyadir fabrikalar-la qizlar qo‘shig‘i,
O‘qi va sev! Buning ismi hur O‘zbekiston.

Shoir talqinidagi vatan sovet O‘zbekistonining taraqqiyoti, bilim va ilm-fan rivoji bilan chambarchas bog‘langan. She’rda vatan haqida gap ketarkan, avvalgi mustamlakachilik iztiroblaridan farqli ravishda, yangi tarixiy zamon, yangi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yutuqlar haqida so‘z boradi, shoir “O‘zbekiston” misolida qadimiy ziddiyatlardan ozod bo‘lgan va yangilangan jamiyatni tasvirlaydi. Bu o‘rinda “kichik vatan” faqat geografik hudud emas, balki yangi sovet davrining mehnat va bilim orqali *yangicha qurilgan madaniyati va kelajagi ramzi* sifatida aks ettiriladi.

Oybekning 1937-yilda yozilgan “Quyosh yo‘li” she’rida [16. B. 2] ham “kichik vatan” haqida, uning tabiati, go‘zalligi, ayanchli o‘tmishi va baxtli buguni haqida so‘z boradi:

O‘zbekiston – paxta yurti, bog‘lar diyori,
O‘zbekiston – sevinch, gullar o‘sgan chamanzor.
O‘zbekiston – go‘zal bir yurt, yangi mazmuni
Yangi zafar tog‘larini oshar purviqor.

Avvalo, “O‘zbekiston” deya ta’kidlab-ta’kidlab aytishning o‘zida faxr tuyg‘usi, o‘zining unga daxldorligidan baxtiyorlik barq urib turadi. Shoir yurtining o‘tmishdagi og‘riqli kunlarini:

Nimalarni ko‘rmadi bu o‘zbek vatani?
Qanday qonli, qanday qo‘rqinch kunlar kechirgan?..
Ochib ko‘ring tarixidan bir sahifani:
Xalq boshida falak og‘ir toshlar sindirgan.

deya yodga olarkan, bugunning tinch, yaratuvchilik kunlaridan qoniqish hosil qiladi, ertasiga umidlanadi. Muhimi, “vatan” va “millat” tushunchalari yana bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. She’r kontekstida “O‘zbekiston” so‘zi va “o‘zbek vatani” birikmasining kontekstual sinonim o‘laroq ishlatilgani ham buni tasdiqlaydi. Shuningdek, bu yerda “vatan” konsepti “o‘tmish – bugun – kelajak” tushunchalarini ham qamrab olayotirki, bu vatan haqidagi tashvishdan – vatanparvarlik tuyg‘usidan darakdir. Zotan, sharoit “sovet vatanparvarligi” tuyg‘usi bag‘rida “o‘zbek vatanparvarligi” ham shakllanishini taqozo etgandir.

Xulosa

1930-yillar o‘zbek she’riyatida “vatan” tushunchasi yangi ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy sharoitlarga mos ravishda shakllandi. Sovet ittifoqining qurilishi, xalq xo‘jaligi yutuqlari va sotsializm mafkurasining xalqqa yetkazilishi milliy sho‘rolar adabiyotida asosiy mavzulardan biriga aylangan edi. Shoirlar bu davrda bir tomondan “katta vatan”ni – Sovet ittifoqini madh etgan bo‘lsalar, boshqa tomondan milliy vatan tushunchasini ham chuqur badiiy talqin qilishga intildilar. Bu jarayonda shoirlar uchun “katta vatan” va “kichik vatan” tushunchalarining farqlanishi, ayni paytda ularning bir-biriga bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. *Tojiy A.* Milliy ziyolilar o‘rtasida ishlash to‘g‘risida // Qizil O‘zbekiston. 11.01.1926; O‘zbekiston madaniy-maorif xodimlari qurultoyida // Qizil O‘zbekiston. 28.01.1926;
2. *Ayn*. O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon // Qizil O‘zbekiston. 14.02.1927. – №37.
3. *Bashir Z*. O‘zbek shoiri Cho‘lpon she’rlari // Turkiston. 4.05.1923. – №124.
4. *Botu*. Qizil madaniyatchilar g‘alabasi // Qizil O‘zbekiston. 11.10.1927. – №233.
5. *Botu*. O‘zbek adabiyotining o‘ktabr inqilobi so‘ng‘i davriga bir qarash // Alanga. 1928. – №10–11.
6. *Cho‘lpon*. Yangi men // Soz (she’rlar to‘plami). – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1935. – 44 b.
7. *Ғулом Ғ.* Мукаммал асарлар тўплами. Шеърлар (1923–1940). Ўн икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 328 б.
8. *Hamid Olimjon*. Ont // Qizil O‘zbekiston. 1.05.1935.
9. *Ҳамид Олимжон*. Танланган асарлар: Шеърлар / Нашрга тайёрловчи Сарвар Азимов. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1951. – 562 б.
10. *Aliyev K.* Aqlli jinni // Qizil O‘zbekiston. 12.10.1927. – №234.
11. *Aliyev K*. Qora kiyingan qizil to‘y // Qizil O‘zbekiston. 27.07.1928;
12. *Миртемир.* Асарлар (Шеърлар). 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 384 б.
13. *Nazarova Sh*. XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 256 b.
14. *Nazir Inoyatiy*. Tanqid va mulohaza: “Til saboqlig‘i” ismli o‘quv kitobiga bir nazar // Qizil O‘zbekiston. 28.04.1926. – №96.
15. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Шеърлар (1922–1935). Ўн тўққиз томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1975. – 160 б.
16. *Oybek*. Quyosh yo‘li. // Qizil O‘zbekiston. 1.03.1937.
17. *Rahim In’om*. Ziyolilar to‘g‘risida // Qizil O‘zbekiston. 10.01.1926.
18. *Sa’diy A*. O‘zbek adabiy ijod maydonida harakatlar // O‘zgarishchi yoshlar. – 1924. – №7.
19. *Uyg‘un, Hamid Olimjon*. Harbiy kommunizm davrida o‘zbek burjuaziya poeziyasi // Cho‘lpon ijodi tanqid ko‘zgusida. – Toshkent: Muharrir, 2022. – 188 b.
20. *Usmonxon*. Munaqqidning “munaqqidi” // Qizil O‘zbekiston. 22.06.1927. – №138. (Yana qarang: 23.06.1927. №139. B. 2; 27.06.1927. – №142. B. 2–3).

THE ARTISTIC CONCEPT OF ‘HOMELAND’ IN UZBEK POETRY OF THE 1930s

Akram A. Khudayberdiyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 93-101.

[1] *Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz*

Key words: concept of homeland, “big homeland”, “small homeland”, Chulpan, Gafur Gulyam, Oybek, Uygun, Hamid Alimjan, Soviet poetry, national identity, artistic interpretation, patriotism.

Sharp and rapid changes in social life marked the period after the revolution and the 1920s. The Jadids primarily focused on promoting the ideas of «Chigataychilik.» The main instrument for this was the «Chigatay group.» Due to the social and cultural conditions following the revolution, Central Asian peoples began to understand their national and ethnic characteristics differently. The administrative and territorial delimitation policies of the Soviet government shaped the social and cultural distinctions of the Central Asian peoples based on the emerging national consciousness of their way of life and ethnic traits. This process demanded a conceptual territory for the emerging «Uzbek» nation, which began to recognize itself as a nation. Thus, a «homeland» was created for the «nation,» which became a realization of the Jadids’ intent to turn this concept into a fact at the beginning of the century. In summary, the process of national delimitation resulted from the needs that had matured in consciousness.

The emergence of «Uzbekistan» as a victory of local national ideology was based on the Chigataychilik views, which faced an onslaught from Soviet ideology by the end of the 1920s. The social and political conditions in Central Asia after the revolution initiated a process of reshaping perceptions of the nation and its spiritual heritage. During this period, the Jadid movement and its leaders strove to spread ideas about national identity and the future of the Uzbek nation. The Jadids relied on Chigataychilik’s ideas in many respects, viewing them as a unified historical heritage of Turkic-speaking peoples (especially Uzbeks) and accepting them as the core of national spirituality.

The administrative and territorial delimitation policies of the Soviet government significantly altered the process of national delimitation. These changes also affected the ideas of Jadidism, leading to a clash with Soviet ideology. This collision resulted in a redefinition of national and ethnic concepts and a simultaneous reimagining of the idea of ‘homeland.’ Particularly in the 1930s, the theme of ‘homeland’ in Uzbek poetry was interpreted with new meanings and various political orientations. For the nation, the homeland was not just a geographical area but also regarded as a spiritual space of pride and honor.

By the end of the 1920s, when the Soviet ideology began to regulate national consciousness and patriotic ideas, the concept of ‘homeland,’ which emerged under the influence of the Jadids, was significantly modified. The Soviet regime reworked this concept based on new spiritual orientations, enriching the poetry of the 1930s with new meanings related to class and communist perspectives.

References:

1. Abdulhai, T. (1926) *Milliy ziyolilar o‘rtasida ishlash to‘g‘risida* [About working among national intellectuals]. Qizil O‘zbekiston. January 11; (See also: *O‘zbekiston madaniy-maorif xodimlari qurultoyida* [At the congress of cultural and educational workers of Uzbekistan]. Qizil O‘zbekiston. January 28.

2. Ain. (1927) *O‘zbek shoirlari. Cho‘lpon* [Uzbek poets. Chulpan]. Qizil O‘zbekiston. February 14. No. 37.

3. Bashir, Z. (1923) *O‘zbek shoiri Cho‘lpon she’rlari* [Poems of the Uzbek poet Chulpan]. Turkiston. May 4. No. 124.

4. Botu. (1927) *Qizil madaniyatchilar g‘alabasi* [The victory of the Red Culturalists]. Qizil O‘zbekiston. October 11. No. 233.

5. Botu. (1928) *O‘zbek adabiyotining o‘ktabr inqilobi so‘ng‘i davriga bir qarash* [A glance at the period of Uzbek literature after the October Revolution]. Alanga. No. 10-11.

6. Chulpan. (1935) *Yangi men* [New me]. “Soz” (a collection of poems). Tashkent: “O‘zbekiston davlat nashriyoti”.

7. Ghafur Ghulam. (1983) *Mukammal asarlar to‘plami. She’rlar (1923-1940)* [A perfect collection of works. Poems (1923-1940)]. Twelve volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.

8. Hamid Olimjon. (1935) *Ont* [Oath]. Qizil O‘zbekiston. May 1.

9. Hamid Olimjon. (1951) *Tanlangan asarlar: She’rlar* [Selected Works: Poems. Prepared by Sarvar Azimov]. Tashkent: “O‘zSSR davlat nashriyoti”.

10. Aliev, K. (1927) *Aqlli jinni* [Smart crazy]. Qizil O‘zbekiston. October 12. No. 234.

11. Aliev, K. (1928) *Qora kiyingan qizil to‘y* [Red wedding dressed in black]. Qizil O‘zbekiston. July 27.

12. Mirtemir. (1980) *Asarlar (She’rlar)* [Works (Poems)]. Tashkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

13. Nazarova, Sh. (2022) *XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillari* [Principles of renewal of Uzbek poetry at the beginning of the 20th century]. Tashkent: Akademnashr.

14. Nazir Inayati. (1926) *Tanqid va mulohaza: “Til saboqlig‘i” ismli o‘quv kitobiga bir nazar* [Criticism and reflection: A look at the textbook “Language lesson”]. Qizil O‘zbekiston. April 28. No. 96.

15. Oybek. (1975) *Asarlar to‘plami. She’rlar* [A perfect collection of works. Poems (1922-1935)]. Nineteen roofs. Roof 1. Tashkent: Fan.

16. Oybek. (1937) *Quyosh yo‘li* [The way of the sun]. Qizil O‘zbekiston. March 1.

17. Rahim In’om. (1926) *Ziyolilar to‘g‘risida* [About intellectuals]. Qizil O‘zbekiston. January 10.

18. Saadi, A. (1924) *O‘zbek adabiy ijod maydonida harakatlar* [Actions in the field of Uzbek literary creativity]. O‘zgarishchi yoshlar. No 7.

19. Uygun and Hamid Olimjon. (2022) *Harbiy kommunizm davrida o‘zbek burjuaziya poeziyasi* [Poetry of the Uzbek bourgeoisie in the era of military communism]. Cholpon’s creativity is in the mirror of criticism. Tashkent: “Muharrir”.

20. Osman Khan. (1927) *Munaqqidning “munaqqidi”* [The critic’s “review”]. Qizil O‘zbekiston. June 22. No. 138 (See also: 23.06.1927. No. 139; 27.06.1927. No. 142).

Muallif haqida ma’lumot:

XUDAYBERDIYEV Akram Akbarovich – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: akromandijoniy@gmail.com